

EKSTREMIZMNI OLDINI OLIISH CHORALARI

A.A. Xamdamov

IIV Akademiyasi yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu tezis orqali siz dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan ekstremizm bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat va xuquqbuzarliklar, ularning turlari, rivojlanishi, tarqalishi, bugungi kunda yurtimizga va boshqa davlatlarga solayotgan xavf-xatarlari hamda oldini olish choralari haqida ma`lumotlar olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Toshkent islom universiteti, masjidlar, Diniy ekstremizm, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun.

Bugun biz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar ko‘yib, tinch va osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o‘z quch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan jannatmakon mamlakatda yashamoqdamiz. Mustaqillik rivojlanishning bir nechta jabhalari qatorida islom ma‘rifatining rivoji uchun, shu bilan bir qatorda, musulmonlarning diniy ibodat va marosimlarini ado etishlari uchun ham qulay sharoit yaratib berdi. Mutaxassis kadrlar tayyorlanib, barcha viloyatlarda diniy o‘quv yurtlari faoliyat ko‘rsata boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 1999 yilda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti tashkil qilindi. Mustaqillikkacha 83 ta masjid faoliyati ko‘rsatgan bo‘lsa, hozirga kelib 2500 dan ziyod masjidlar faoliyat olib bormoqda. Ming afsuski, bunday chiroy ochib borayotgan, rivojlangan davlatlar qatorida o‘ziga xos nufuzga ega bo‘layotgan, vijdon erkinligiga keng imkoniyatlar yaratilgan mustaqil yurtimizni qo‘ra olmaydigan kuchlar ham paydo bo‘la boshladi. 90-yillarning boshida masjidlarda, har xil diniy o‘quv yurtlarida maxsus diniy ta’limga ega bo‘lmagan shaxslarning rahbarlik qilishi, aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan diniy ta’lim beruvchilar paydo bo‘ldi. Tinchligimizni ko‘ra olmaydigan guruh va quchlar o‘z g‘arazli, buzg‘unchi g‘oyalarni islomning mazmun-mohiyatini yaxshi tushunmaydigan o‘zimizning musulmonlar orqali amalga oshirishga harakat qilishdi. Shu tariqa, diniy ekstremizm va terrorizm chetdan bizning mamlakatimizga kirib kelib, O‘zbekistonning mustaqilligiga, tinchligiga tahdid soluvchi katta muammoga aylandi.

Diniy ekstremizm — diniy firqalar yoki ayrim dindorlar tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid bo‘lgan g‘oyalarni targ‘ib qilish va shunday g‘oyalarga mos kelmaydigan faoliyat olib borishni anglatadi. Terrorizm esa

odamlarni qo‘rqitib, jamiyatda qo‘poruvchilik harakatlarini amalga oshirish bilan xavf va dahshat tug‘dirishni anglatadi.

Terrorchilik har doim diniy va insoniy me‘yorlar, umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy fazilatlarga qarshi qaratilgani uchun eng og‘ir va vahshiyona jinoyat hisoblanib kelgan. Shuning uchun ham ekstremizm va terrorizm butun jahon afkor ommasi, progressiv kuchlari tomonidan qoralanmoqda. Eng achinarlisi, bunday g‘oyalar ta‘siriga yoshlarning tushishi tashvishlanarli holdir.

Yoshlar ongiga diniy ekstremizm, terrorizm g‘oyalarini singdirishning oldini olib, ularning ongini bunday zararli illatlardan muhofaza qilib, antiterroristik usullar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Ushbu maqsadni ko‘zlagan holda 2000 yil 15 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni (167-II-son) qabul qilindi. Uning 5-moddasi “Terrorchilik faoliyatini o‘ldini olish” deb nomlangan va shunday jumlar mavjud: “Terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi”. Qonunning 6-moddasida esa “davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashadilar va zarur yordam beradilar” deya belgilangan.

Muhtaram Prezidentimiz ta‘rifi bilan aytganda: “G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma‘rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin”. Terrorizm tom ma‘noda jaholatdir. Buzg‘unchi g‘oyalarga asoslangan xalqaro terrorizm va uning har qanday ko‘rinishi kishilik jamiyatining o‘tmishida ham, bugunida ham xalqlar boshiga og‘ir kulfatlar yog‘dirmoqda. Har yili uning tajovizidan 100 mingdan ortiq begunoh kishilar qurbon bo‘lmoqda, jamiyat rivojlanishi, ayrim davlatlar, mintaqalar va insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda va mudhish oqibatlar keltirib, chiqarmoqda. Dunyo bo‘yicha qurol savdosining o‘sishi va tarqalishi ham ekstremizm va terrorizmning jahon miqyosida keng ko‘lamda avj olishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuni ishonch bilan aytishimiz mumkinki, milliy an‘analarimizga mutlaqo yot bo‘lgan ekstremistik va terroristik g‘oyalarning jamiyatimizga kirib kelishini bartaraf etuvchi qudratli vositalardan biri bu insonparvarlik, tinchliksevarlik, ma‘rifatparvarlik, bunyodkorlik va shuningdek, milliylik va diniy qadriyatlardir.

Islom diniga e'tiqod qiluvchi O'rta Osiyo xalqlari asrlar osha boshqa din vakillari bilan ahil yashab, olamshumul qashfiyotlar qilish va umumjaxon tamadduniga benazar hissa qo'shish baxtiga muyassar bo'ldilar. Boshqacha aytganda, dinlararo bag'rikenglik, uyg'unlik bunyodkorlikning qudratli manbai ekanligini amalda isbotlab keldilar. Milliy-diniy qadriyatlarimiz xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni Vatanga muhabbat, ajdodlarga sadoqat, zo'ravonlikka nafrat ruhida tarbiyalovchi, ularni ezgulik va bunyodkorlikka da'vat etuvchi bitmas-tuganmas kuch-kudrat manbaidir. Ular na faqat mafkuraviy bo'shliqning yuzaga kelishiga, balki ming yillardan beri halol mehnati va olamshumul kashfiyotlari ila jahon tamadduniga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan xalqimizning mentalitetiga tamomila zid bo'lgan terrorchilik g'oyalarining kirib kelishiga qarshi qaratilgan mustahkam qalqondir. Milliy va diniy qadriyatlarning targ'iboti, shubhasiz, omma ongida har qanday g'oyaning sarasini saraga, puchini puchga chiqaruvchi, ayniqsa, ekstremizm va terrorizm g'oyalariga qarshi mustahkam immunitetning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu borada berparvolik va loqayidlikka yo'l qo'ygan jamiyat, shubhasiz, falokatga mahkumdur. Zotan, "Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir", degan ibratli umrboqiy hikmat zaminida ham har qanday yovuzlikning, shu jumladan, terrorchilikning oldini olishga qaratilgan ogohlik va unga qarshi kurashga hamisha tayyor turish lozimligi haqidagi ezgu da'vat yotibdi. Ekstremizm va terrorizmning bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida «Jaholatga qarshi ma'rifat» ezgu g'oyasi asosida har bir mahalla kesimida diniy–ekstremistik xususiyatga ega bo'lgan huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart–sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga, birinchi navbatda, ekstremistik oqim mafkurasi ta'siri ostiga tushib qolgan shaxslarni tuzatishga alohida e'tibor qaratish kabi ustuvor yo'nalishlari⁸⁴ ijrosini ta'minlashda profilaktika inspektorlarining ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning profilaktikasi doirasida faoliyatini tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Davlat, uning tegishli organlari jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun, eng muhimi, insonning muqaddas huquqi – yashash huquqini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish uchun tashkil etilgani shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/ekstremizm_va_terrorizmga_qarshi_kurashish_buyicha_milliy_strategiya_qabul_qilindi.
2. . Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқидан, Нью-Йорк шаҳри, 2017 йил 19 сентябрь.
3. Зарипов З., Исмаилов И. «Криминология». Умумий қисм: Дарслик. – Т., 1996. – 230 б